O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD-60310300-1.12
2024 yil “10” 12

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2024 yil “___” _____

RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI VA DIFFERENSIAL PSIXOLOGIYA

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot

Ta’lim sohasi: 310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar

Ta’lim yo‘nalishi: 60310300 – Psixologiya

Fan/modul kodi RPD 1210 RPD 1310	O‘quv yili 2024-2025 2025-2026	Semestr 2,3	ECTS-kreditlar 6,4
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili o‘zbek O‘zbek\Rus		Haftadagi dars soatlari 4,4

1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya	126	180	300

2. **1.Faning mazmuni:**

Fanni o‘qitishdan maqsad - inson shaxsini shakllanish jarayoni bilan bog‘liq masalalarni qamrab oladi va chaqaloqlik davridan keksayish davrigacha bo‘lgan taraqqiyot davomi psixologik jarayonlar psixik holatlar, xususiyatlar va ularning o‘zgarishlarini tadqiq qiladi.Shuningdek, shaxs taraqqiyotiga oid turli qarashlar, nazariyalar va qonuniyatlarni o‘rganadi.Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, unda shaxsning rivojlanishi, bilish jarayonlari, intellectual salohiyat, differensial farqlar, ilmiy dunyoqarashning tarkib topishiga doir nazariy va amaliy bilimlarni tarkib toptirishga yordam beradi.

Fanning vazifasi – ontogenezga oid qonuniyatlar, omillar hamda sabablar, ularning rivojlanish va shakllanishining mohiyati va tuzilishini aniqlash.Umr davrining shakllari va tiplari, muammoga oid biologik, psixologik va nazariy yondashuvlarning tahlili, uning profilaktikasi, psixodiagnostikasi hamda psixokorreksiyasi xususiyatlarining o‘ziga xosligi haqidagi nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirish.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-MODUL RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI

1-Mavzu: Rivojlanish psixologiyasi fanining predmeti, vazifalari va tadqiqot metodlari.

Asosiy tushunchalar. Rivojlanish psixologiyasi vazifalari. Shaxsning ontogenezda rivojlanish dinamikasi. Sharq allomalari asarlarida rivojlanish masalalari. Rivojlanish psixologiyasining asosiy metodologik tamoyillari. Rivojlanish psixologiyasi fani metodlari. “Metod” va “metodika” tushunchalari. Tadqiqotlar o‘tkazishning asosiy tamoyillari va bosqichlari.Umrga oid psixologiyada metodlarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari.Metodlar klassifikatsiyasi.Kuzatish metodi va uning sxemasi.Bolalar psixologiyasida qo‘llaniladigan metodikalarning o‘ziga xosligi.

2-Mavzu: Taraqqiyotning asosiy masalalari

Psixik taraqqiyot qonuniyatlari va shaxs shakllanishi. Umr taraqqiyoti psixologiyasi muammolari.Inson shaxsining tarkib topishi va psixik rivojlanishining sharoitlari.Taraqqiyot nazariyalari.Biogenetik, sotsiogenetik va psixogenetik nazariyalar.Psixik taraqqiyot va ta’limning o‘zaro munosabati.

3-Mavzu: Chet el psixologiyasida va respublikamiz psixolog olimlarining umr davrlarini tabaqalash kalssifikatsiyalari.

L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi. E.Erikson, D.B.Elkonin, E.G‘.G‘oziyev tabaqalash nazariyalari.Yosh inqirozlari.Rivojlanishning yaqin zonasi nazariyalari.

4-Mavzu: Rivojlanishning ilk bosqichlarida insonning psixik rivojlanishiga xos xususiyatlari

Chaqaloqlik davrining umumiy fiziologik xususiyatlari. Apgar shkalasi bo‘yicha fiziologik holatni baholash.Chaqaloklik davrining psixologik xarakteristikasi.Chaqaloqlik davri inqirozi. Jonlanish kompleksi.

5-mavzu: Go‘daklik davrining asosiy fiziologik xususiyatlari.

Rivojlanish masalalari. Go‘daklik davrining psixologik xususiyatlari.Manipulyativ faoliyat, psixik funksiyalar. Emotsional muomala yetakchi faoliyat sifatida. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar psixik taraqqiyoti xarakteristikasi. Nutqning vujudga kelishi. Passiv nutq. Aktiv nutq. Avtonom nutq. Shtern qonuni.Kognitiv o‘zgarishlar, psixosotsial rivojlanish. Predmetli faoliyat va o‘yin manbalari. Go‘daklik davrida aqliy rivojlanish. 1 yoshdagi inqiroz. 3 yoshdagi inqiroz. Go‘daklik davrida tilning o‘zlashtirilishi. Go‘daklik davrida ijtimoiy hissiyotlar. Ijtimoiy simpatiya va uning rivojlanishi, antipatiya. Freyd bo‘yicha bolaning jinsiy rivojlanishi. Bolalardagi yuksak hissiyotlar.

6-Mavzu. Ilk bolalik davri

Ilk bolalik davrida bolalarda jismoniy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘yin –yetakchi faoliyat sifatida. O‘yin atributlari o‘yin vazifalarining shakllanishi va transformatsiyasi. Didaktik o‘yinlar. Bolalar o‘yinlarining ijtimoiy mazmuni. Bolaning ijtimoiy yetilishi. Boldvin bo‘yicha o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi. O‘yinning bola ijtimoiy rivojlanishi.Psixik funksiyalar, psixosotsial rivojlanish, shaxs shakllanishi.Ilk bolalik davrida emotsional rivojlanish.Bolaning individual hissiyotlari.Bolalardagi qo‘rquv uning yuzaga kelish sabablari va omillari. Bolalardagi qo‘rquvning ikki shakli to‘g‘risidagi ta’limot.Bolalardagi jahl. Individual va ijtimoiy uyat hissiyoti. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanishi. Nutq rivojlanishining psixofiziologik

nuqtai-nazardan talqini.

7-Mavzu: Maktabgacha yosh davri

Maktabgacha yoshdagi davrda aqliy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari. Piaje tajribalari. Bolaning maktabga ruhiy tayyorgarligi muammosi. Kommunikativ tayyorgarlik. Kognitiv tayyorgarlik. Animizm. 6-7 yosh inqirozi. Taraqqiyoti sustlashgan bolalar psixologiyasi. Psixik infantilism, uning kelib chiqish omillari, ko'rinishlari. Psixik taraqqiyoti sustlashgan bolalarning oligofren bolalardan farqi. Psixik taraqqiyoti sust bolalar psixologik reabilitatsiyasi masalalari. Bolalardagi diqqatning yetishmovchiligi sindromi. Giperdinamik va gipodinamik sindromlar. Muxina tadqiqotlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tadqiq etishda qo'llaniladigan asosiy psixodiagnostik metodikalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatlar diagnostikasi. Rene-Jil metodikasi. "Oila rasmi" metodikasi. Bolaning estetik hayoti, uning umumiy qirralari. Estetik hissiyotlar. Bolalar tafakkuri mifologizmi.

8-Mavzu: Kichik maktab yosh davri

Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar va anatomik- fiziologik o'zgarishlar. Motivlarning bo'ysundirilishi, axloqiy normalarning qabul qilinishi, xatti-harakatning ichki rejasini shakllantirilishi- muvaffaqiyatli o'qitishning omili sifatida. O'quv faoliyati - kichik maktab yoshidagi bolaning yetakchi faoliyati sifatida. O'quv faoliyati komponentlari: o'quv topshiriqlari, o'quv xatti-harakatlari, o'zini-o'zi nazorat qilish va o'zini-o'zi baholash. A.I.Lipkina, T.Yu. Andryuxenko, L.V.Zankov, N.A.Menchinskaya tadqiqotlari.Motiv va maqsad tushunchalari. A.N.Leontev tadqiqotlari.L.I.Bojovich kuzatuvlari. O'rganish va tafakkur.

9-Mavzu: O'smirlik davri

O'smirlik davri inson taraqqiyotidagi tub burilish davri sifatida. O'smirlik davridagi asosiy fiziologik va neyrogumoral o'zgarishlar. O'g'il va qiz bolalarda o'smirlik davrida jismoniy rivpjlanishdagi farqlar. Akseleratsiya va uning o'ziga xosligi. O'smirlik davrida kuzatiladigan asosiy psixologik o'zharishlar. Pubertat inqirozi. Rivojlanish masalalari. Shaxs kamolotining o'ziga xos xususiyatlari. Jinsiy o'xshashlik. Psixik funksiyalarning mukammallashuvi. O'smirlik davridagi shaxslararo munosabatlar. O'smirlik davri bo'yicha chet el nazariyalari. Biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik nazariyalar. O'smirlik davri va ekologik model nazariyasi.

10-Mavzu: O'spirinlik davri

Rivojlanish masalalari. Psixik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari. Dunyoqarashning kamol topishi. Kasbga yo'naltirish va hayotiy istiqbol. Kasb tanlash nazariyalari (Ginzberg, Golland). Jinsiy roller omili va kasb tanlash. Kasbga layoqatlilik va alohida qobiliyatlar. Madaniy to'siqlar. Kasb tanlash motivatsiyasi. O'spirinlik davrining turli ilmiy nazariyalardagi talqini. O'spirinlikning biologik nuqtai nazardan tahlil etilishi.

11-Mavzu: O'spirinlik davrining psixoanaliz hamda sotsiopsixoanaliz namoyandalari

Xoll rekapitulyatsiya qonuni. Arnold Gezell va rivojlanishning spiral modeli. O'spirinlik davri psixoanaliz namoyandalari Zugmund Freyd va Anna Freyd talqinida. O'spirinlik davrining sotsiopsixoanaliz talqini. E.Erikson nazariyasi va aynanlik. Aynanlik komponentlari. Jan Piaje va o'spirinlikning kognitiv nazariyalari. Robert Selman ijtimoiy bilish nazariyasi. U.Bronferbrenner nazariyasi.

12-Mavzu: O'spirinlik davri ijtimoiy psixologiya nuqtai nazarida.

Mikrosistema, mezosistema, ekzosistema, makrosistema tushunchalari. Albert Bandura va o'rgatishning ijtimoiy nazariyasi. Xevingrest: o'spirinlik davrida rivojlanish vazifalari. Kurt Levin va maydon nazariyasi. O'spirinlikning antropologik talqini. Margaret Mid va Rut Benedikt nazariyasi. Ota-onalar va bolalar munosabatlariga kross-nazariy qarashlar. O'spirinlik davrida do'stlik muammosi. Emotsional munosabatlarga ehtiyoj.

13-Mavzu: Yetuklik davri psixologiyasi

Yetuklik davrining tabaqalanishi. Erta yetuklik, o'rta yetuklik va kechki yetuklik davrlari. Biologik umr, ijtimoiy umr va psixologik umr tushunchalariga ta'rif. Yetuklik davrida yuz beradigan asosiy fiziologik o'zgarishlar. Yetuklik davrida aqliy rivojlanish masalalari. Ijtimoiy vaziyatning o'ziga xosligi. Erta yetuklik davrining jismoniy, psixosotsial va kognitiv rivojlanish xususiyatlari. "O'rta yoshlar" inqirozi. O'rta yetuklik davrida kognitiv imkoniyatlarning o'zgarishi va saqlanib qolinishi. Psixosotsial rivojlanishdagi shaxslararo munosabatlar jabhasi, kasbiy hayot samaradorligi. Salomatlik masalasi yetuklik davrining asosiy muammosi sifatida. Yetuklik davrida tafakkurning bir maromligi. Yetuklik davrida qadriyatlar sistema va undagi o'rin almashishlar. Motivatsiya inqirozi. Ijtimoiy mavqe muammosi. Psixogerentologiya. Psixogerentologiyaning fan sifatida shakllanishi. Hozirgi davrning asosiy ijtimoiy-gerentologik muammolari. Qarilik davrining anatomik –fiziologik xususiyatlari va asosiy jismoniy o'zgarishlari.

14-Mavzu: Qarilik davri muammolari

Qarilik davrining o'ziga xos psixologik xususiyatlari. Qarilik davrida kognitiv sohaning o'ziga xosligi. Qarish nazariyalari. Qarilik davridagi intellektual salohiyatning o'ziga xosligi. Qarilik davrining ijtimoiy muammolari. Emotsional yetishmovchilik sindromi. Gerentologik davrdagi shaxslararo munosabatlar. Qarilik davrining asosiy emotsional xususiyatlari.

Moslashuv va yolg'izlik muammolari. "Yolg'izlik hissi" kompleksi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Qarilarni ijtimoiy-psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash muammolari.

15-Mavzu: Uzoq umr ko'ruvchilar psixologiyasi.

Uzoq umr ko'rishning biologik ijtimoiy va psixologik omillari. Ijodiy salohiyat. Qariyalar bilan psixologik – konsultatsiya tadbirlarini olib borish xususiyatlari. Qariyalar uyida psixolog faoliyati va uni takomillashtirish tadbirlarini ishlab chiqish.

2-MODUL DIFFERENSIAL PSIXOLOGIYASI

1-Mavzu: Differentsial psixologiyaning predmeti

Differentsial psixologiyaning yuzaga kelish tarixi. Psixologik bilimlar tuzilmasida differensial psixologiyaning o'rni. Differentsial psixologiya metodologiyasi. Inson xususiyatlari bo'yicha nazariyalarda individual tafovutlarga yondashuvlar.

2-Mavzu: Differensial psixologiyaning vazifalari va tadqiqot metodlari

Differensial psixologiya individual xulq-atvorning biologik asoslarini o'rganadigan fan sifatida, inson individualligi to'g'risidagi masalasini turli psixologik tadqiqot maktablarida o'rganilishi (V.Merlin, B.Ananyev, B.Teplov, V.Nebilitsin qarashlari). Differensial psixologiya psixik ilmlar sistemasida ekanligi. Individual-tipik va jinsiy xususiyatlarning psixofiziologik va psixologik tadqiqot metodlari. Kompleks va longityud metodlari. Kuzatish metodlari. Test metodikalari, ularning qo'llanilishi va chegaralari.

3-Mavzu: Differensial psixologiya qarashlarning rivojlanish tarixi

Primitiv (soda) xulq-atvor tipologiyasi: Goroskop, astronomiya, xiromantiya, fiziognomika, ijtimoiy ong va ishlab chiqarishga ongli munosabatning rivojlanishiga amaliy talablar. F.Galton va I.Kant ishlari. Berilgan materiallarni matematik statistik tahlili va maxsus psixologik metodlar.

4-Mavzu: Shtern nazariyasiga oid differensial psixologiyaning vazifalari.

A.Anastazi ishlari. Fan shakllanishdagi integrative jarayonlar. Fan rivojlanishidagi B.M.Teplov xizmatlari. Spirmen, Shtern, Anri, A.Binе va boshqa xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlili. Zamonaviy differensial psixologiyaning asosiy muammolari. Individuallik va amaliyotni o'rganishning falsafiy-psixologik ahamiyati.

5-Mavzu: Miya yarim sharlari assimetriyasi va uning namoyon bo'lishi

Bosh miyaning tuzilishi uning yosh o'zgarishlari. Bosh miyaning anatomik tuzilishi. Markaziy nerv sistemasining stvol qismining tuzilishi. Vegetativ nerv sistemaning tuzilishi. Simpatik va parasimpatik nerv sistemasi

6-Mavzu: Psixofiziologiya va psixik xususiyatlarning genetik analizi

Psixogenetika. Ijtimoiy sifatlarning genetik determinatsiyasi. Qobiliyatlar. Ularni namoyon etish sharoitlari.

7-Mavzu: Bioelektrik aktivlikning nasldan-naslga o'tishi.

Qobiliyatlar va temperamentning umumiy tavsifi. Geneologik tadqiqotlar. Ong ijtimoiylik sifatida. O'z ichki dunyosini tashkillashtirishning individual tafovutlari.

8-Mavzu: Temperament psixobiologik asos sifatida.

Omil va klaster tahlilining boshlanishi. Temperament psixikaning dinamik tasnifi sifatida. Xulq-atvor usullari. Temperament va qobiliyatlar tizimida faollik va o'zini o'zi boshqarish. Intelektni o'rganish tarixi. Intellekt va uni o'lchash mezonlari. Intellektni aniqlashda muhit va irsiyatning o'rni.

9-Mavzu: Individual psixologik tafovutlarning umumiy va maxsus nazariyalari

Individuallikning tuzilishi. Individuallikning bosqichlari. Ichki va bosqichlararo aloqaning ko'rinishi. Individual-psixologik tafovutlarning rasman, dinamik va sermazmun ta'rifi.

10-Mavzu: Inson konstitutsiyasi haqida tushuncha.

Yosh davrlarda psixik xususiyatlarning jinsiy differensiatsiyasi. Ontogenez, balog'at, qarish insonning neyrodinamik konstitutsiyasi ekanligi. Psixika boshqaruvining ierarxik(vertikal) va qo'shimcha (gorizantal) tizimi.

11 – Mavzu: Inson nerv sistemasining asosiy xususiyatlari.

I.P.Pavlov va B.M.Teplov va uning shogirdlarining nerv sistema xususiyatlari to'g'risidagi zamonaviy qarashlari.Umumiy va xususiy xususiyatlari.Parsiallik fenomeni va uni bartaraf etish yo'llari.

12-Mavzu: Erkak va ayollar o'rtasidagi jinsiy farqlar psixologiyasi

Erkaklarning xarakterli xususiyatlari. Ayollarning xarakterli xususiyatlari. Androgeniya nazariyasi. S.Bem konsepsiyasi

13-Mavzu: Erkak va ayollar o'rtasidagi muloqotning o'ziga xosligi.

Ayol va erkak o'rtasidagi muloqot. Erkak muloqoti. Ayol muloqoti. Erkak va ayol o'rtasidagi muloqot to'g'risidagi olimlarning qarashlari.

14-Mavzu: Individual yondashish kasbiy faoliyatining samaradorligini oshirish omili sifatida.

Inson individualligi va ijtimoiy amaliyot. Mehnat faoliyatining turlaridagi individual-psixologik xususiyatlar. Faoliyatning individual uslubi to'g'risidagi umumiy tushuncha.

15-Mavzu: Kasb tanlash va kasbga yo'naltirish muammolari.

Kasbga o'rgatishda individual yondashish. Insonning jamoaviy faoliyatidagi individual-psixologik xususiyatlarni baholashda psixodiagnostik

metodlarga qo'yiladigan asosiy talablar

III. Seminar va amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar va amaliy mashg'ulotlarda talabalar rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiyasi faniga doir bilimlar amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirilishiga harakat qilinadi.

Seminar va amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-MODUL RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI

1.Rivojlanish psixologiyasi fanining predmeti, vazifalari va tadqiqot metodlari.

2.Taraqqiyotning asosiy masalalari

3.Chet el psixologiyasida va respublikamiz psixolog olimlarining umr davrlarini tabaqalash kalssifikatsiyalari.

4.Rivojlanishning ilk bosqichlarida insonning psixik rivojlanishiga xos xususiyatlari

5.Go'daklik davrining asosiy fiziologik xususiyatlari.

6.Ilk bolalik davri

7.Maktabgacha yosh davri

8.Kichik maktab yosh davri

9.O'smirlik davri

10.O'spirinlik davri

11.O'spirinlik davrining psixoanaliz hamda sotsiopsixoanaliz namoyandalari

12.O'spirinlik davri ijtimoiy psixologiya nuqtai nazarida

13.Yetuklik davri psixologiyasi

14.Qarilik davri muammolari

15.Uzoq umr ko'ruvchilar psixologiyasi

2-MODUL DIFFERENSIAL PSIXOLOGIYASI

1.Differentsial psixologiyaning predmeti

2.Differensial psixologiyaning vazifalari va tadqiqot metodlari

3.Differensial psixologiya qarashlarning rivojlanish tarixi

4.Shtern nazariyasiga oid differensial psixologiyaning vazifalari.

5.Miya yarim sharlari assimetriyasi va uning namoyon bo'lishi

6.Psixofiziologiya va psixik xususiyatlarning genetik analizi

7.Bioelektrik aktivlikning nasldan-naslga o'tishi.

8.Temperament psixobiologik asos sifatida.

9.Individual psixologik tafovutlarning umumiy va maxsus nazariyalari

10.Inson konstitutsiyasi haqida tushuncha

11.Inson nerv sistemasining asosiy xususiyatlari

12.Erkak va ayollar o'rtasidagi jinsiy farqlar psixologiyasi

13.Erkak va ayollar o'rtasidagi muloqotning o'ziga xosligi.

14.Individual yondashish kasbiy faoliyatining samaradorligini oshirish omili sifatida.

15.Kasb tanlash va kasbga yo'naltirish muammolari

Seminar va amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tkazilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

"Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiyasi" fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va fanga doir masalalarni yechishda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fan xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

-seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik;

-darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;

-tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;

-maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

-talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;

-faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;

-masofaviy ta'lim.

1-Modul Rivojlanish psixologiyasi

1. Rivojlanish tushunchasi. Rivojlanishning xususiyatlari, tamoyillari va qonuniyatlari
2. Yosh tushunchasi va yosh davrlar tasnifi
3. Psixik xususiyatlarning rivojlanish davridagi o'zgarishlarni o'rganish usullari
4. Biogenetik yondashuv: E.Xekkel, S.Xoll, Z.Freyd bo'yicha

	5. Sotsiogenetik yondashuv: E.Eriksonning insonning shaxsiy taraqqiyoti nazariyasi 6. Persogenetik yondashuv: A.Maslou, K.Rojers bo'yicha 7. Kognitiv rivojlanish nazariyalari: bolaning intellectual rivojlanishi haqidagi Piaje nazariyasi 8. Rivojlanish psixologiyasida xulq-atvor yondashuvi: J.Uotson, E.Torndayk, B,Skinner bo'yicha 9. D.B.Elkoninning yosh dinamikasi va rivojlanish davrlarini tabaqalash nazariyasi 10. Umrga oid psixologiya fanining predmeti 11. Taraqqiyotning asosiy masalalari 12. Umr davrlarini tabaqalash nazariyalari 13. Umr inqirozi 14. Chaqaloqlik davrining inqirozi 15. Go'daklik davri taraqqiyoti 16. Bir yosh inqirozi 17. Ilk bolalik davrining inqirozi 18. Ijtimoiy vaziyatdagi ilk bolalik davri 19. Ilk bolalik davrida kattalar bilan muloqot va nutqni rivojlanishi 20. Ilk bolalik davridagi bolalarning kognitiv rivojlanishi 21. Erta bolalik davrida shaxsiyatning shakllanishi 22. Uch yosh inqirozi 23. Erta bolalik davrida shaxsiyatni shakllanishi 24. Kichik maktab yoshi davri xususiyatlari 25. Kichik maktab yoshidagi bolalarning shaxsiyatini rivojlanishi 26. O'smirlarning xulq-atvori 27. O'spirinlik davriga o'tish inqirozi 28. Yoshlik davrining intellektual rivojlanishi 29. Yoshlarda muloqotning xususiyatlari 30. Yetuklik davri psixologiyasi 31. Psixogerentologiya 32. Qarilik davri muammolari 33. Qarilikdagi faoliyatdagi ijtimoiy rivojlanish holati 34. Katta yoshdagi normative inqirozlar 35. Qarilikning yosh chegaralari muammolari 36. Keksayish davrida kognitiv soha 2-Modul Differensial psixologiya 1. Differensial psixologiyaning asosiy vazifalari va tadqiqot metodlari 2. Inson individualligining turli psixologik maktablarda o'rganilishi

	3. Individual psixologik tafovutlarning umumiy va maxsus nazariyasi 4. Psixofiziologik tizimda jinsiy farqlar 5. Inson nerv sistemasining asosiy xususiyatlari 6. Individual yondashish kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish sifatida Bine va Simon metodikasi 7. J.Kettel va Vitken metodikalari 8. Intellektual testlar 9. V.M.Rusalovning xarakter va temperament xislatlari 10.Erkak va ayollar o'rtasidagi jinsiy farqlar psixologiyasi 11.Erkak va ayollar o'rtasidagi muloqotning o'ziga xosligi. 12.Individual yondashish kasbiy faoliyatining samaradorligini oshirish omili sifatida. 13.Kasb tanlash va kasbga yo'naltirish muammolari
3.	**V. Fanni o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiyasining dolzarb muammolari, Rivojlanish davrlar borasidagi psixologik yondashuv, shaxs borasida bixeviorial, ijtimoiy-kognitiv nazariyalari, kouching texnologiyalarining mazmun-mohiyati, kouching modeli, ko'rinishlari, turlari. Tanishuv va mijoz maqsadlarini topish, hamkorlikdagi munozara usuli xususida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** shaxs shakllanishi va rivojlanishining biogenetik, sotsiogenetik yo'nalishlari, shaxs borasidagi nazariy yondashuvlar va psixologik maktablar, shaxsga qo'yiladigan talablar, axloqiy tamoyillar, jarayoning bosqichlari, mijoz zahiralarini o'rganish borasida ***ko'nikmaga ega bo'lishi;*** rivojlanish borasidagi psixologik maktablar-nazariyalarini tahlil qilish, psixoanalitik, ijtimoiy-kognitiv ta'limotida shaxs muammosini ilmiy tahlili, mijoz haqligini o'rganish xatti-xarakatlarining yangi modellarini shakllantirish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI.Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** maruzalar; muammoli vaziyatlar tahlili; seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); guruhlarda ishlash; taqdimotlar qilish; induvidial loyihalar; jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. E.G‘. G‘oziyev Umumiy psixologiya (darslik) Toshkent 2020 yil “Asian Book House” nashiryoti 2. E.G‘. G‘oziyev Ontogenez psixologiyasi (o‘quv qo‘llanma) Toshkent 2020 yil “ NIF MSh” nashiryoti 3. A.K. Shamshetova, R.N. Melibayeva, X.E. Usmanova, I.O. Xaydarov Umumiy psixologiya (o‘quv qo‘llanma) Toshkent 2018 yil “Barkamol fayz media” nashiryoti 4. O.S.Qodirov Umumiy psixologiya (o‘quv qo‘llanma) Samarqand 2022 yil “Sam DU” nashiryoti 5. Z.T. Nishanova Psixologik xizmat. (o‘quv qo‘llanma) Toshkent 2007 yil “Yangiyul poligraph service” nashiryoti. 6. N.S.Jo‘rayev, D.A. Saliyeva, N.A.Sultonova, Psixologiya tarixi (Darslik) Toshkent 2019 yil. 7. O.S.Qodirov, Sh.Hotamov, Ijtimoiy psixologiya (Darslik) Samarqand 2023 yil 8. P.I.Ivanov, M.E. Zufarova, Umumiy psixologiya (Darslik) Toshkent 2018 yil. 9. P.I.Ivanov, M.E. Zufarova, Umumiy psixologiya (Darslik) Toshkent 2008 yil. **Qo‘shimcha adabiyotlar** 1. Mirziyoyev Sh.M Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. 30 b. 2. O‘zbekiston Respublikasining “Rivojlanishlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. 3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi” PF-4947-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 6 (7660-son, 2017. 4. Asmolov A.G. Psixologiya lichnosti: kulturno-istoricheskoy panimaniye razvitiya cheloveka: Ucheb.dlya stud.vuzov, / A.G.Asmolov. – 3 –e izd., ispr. I dop.-M. : Smisl: Akademia, 2007. – 526 c. –(Psixologiya dlya studenta).2003,2004,2005 5. Psixologiya lichnosti v trudax otechesvennix psixologov / sost.i obsh.redaksiya L.V.Kulikova.-SPb.: Piter, 2001. – 476 c 6. Orlov A.B. Psixologiya lichnosti I sushnosti cheloveka: Paradigmi, proeksii, praktiki: Ucheb.posobiye dlya stud. Vuzov, obuchayushixsya po spes. “Psixologiya” / A.B.Orlov. – M.: Academiya, 2002. – 271 c. 7. Eliseev, O.P. Praktikum po psixologii lichnosti / o.P. Eliseev. – M.: Piter, 2007. – 512 c. 8. Sapogova E.E. Konsultativnaya psixologiya. –M.: Akademiya, 2008. - 352 c. 7. 9. Florova S.V Psixotexnologiya grupovoy raboti [Elektronniy resurs]: uchebno-metodicheskoy posobiye dlya magistrantov, obuchayushixsya po napravleniyu “Psixologiya” fakulteta psixologii / S.V Florova. – Saratov: [b.i.], 2015. 126 c. – **Axbotor manbalari** www.tpdu.uz www.pedagog.uz www.ziyoned.uz www.edu.uz tpdu-INTERNET.Ped www.nutq.intal.Uz Izoh: qo‘shimcha adabiyotlar boshqa axborot-resurs markazlarida mavjud
7.	Fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2024-yil 16-avgustdagi 301-ij buyrug‘i asosida 1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	Fan modul uchun mas’ullar: Sharof Rashidov nomidagi SamDU, “Amaliy psixologiya” kafedrasi o‘qituvchilari; dots.S.Sh.Ummatova, ass.Sh.A.Kuchiboyev va ass. F.F. Akilovlar.
9.	Taqrizchilar: SamDU, “Amaliy psixologiya” kafedrasi mudiri, dots.O.S.Qodirov Samarqand davlat tibbiyot universiteti Pedagogika-psixologiya kafedrasi dotsenti D.U.Mamadiyorova

Rais: dots. M.Normamatova

Kafedra mudiri: dots. O.S.Qodirov

Fakultet dekani: dots. A.Q. Aymatov

“TASDIQLAYMAN”

SamDU o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori:

_____ A.S.Soleev

“___” _____ 2024-yil

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi dotsent S.Sh.Ummatova tomonidan tayyorlangan "Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya" faniga tuzilgan fan dasturiga

TAQRIZ

"Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya" fanida fan dasturi oily ta'lim muassasasida o'quv jarayonlarini tashkil etishda talabalarga "Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya" bilimlar berish, har bir inson va butun bir jamiyat psixik salomatligini saqlab qolishga mo'ljallab tuzib chiqilgan. Fan dasturi oily ta'lim muassasalarida fanni tashkil etishda fanning vujudga kelish tarixi, dolzarbligi, maqsad va vazifalari, fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga qo'yilgan talablar, fanning mohiyati ochib berilgan. Fan dasturida fan yuzasidan mavzular ketma-ketligi, fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda murakkablik darajasi ishlab chiqilgan. Bundan tashqari talabalarga shaxsning bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy sifatlari, individual-psixologik xususiyatlari, ichki regulyatsiya, shaxs va faoliyat shuningdek, kasbiy ko'nikmalar va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammolariga alohida e'tibor qaratilgan.

Talabalarga "Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya" fanining predmeti, maqsad va vazifalari, fanning yuzaga kelish tarixi, ushbu fan taraqqiyotiga turli olimlarning qo'shgan hissasi, miya va psixika, psixikaning nerv-fiziologik asoslari, shaxs, faoliyat, kognitiv jarayonlar, jumladan, diqqat, xotira, xayol, sezgi, idrok, nutq, tafakkur jarayonlari, shaxsning hissiy irodaviy sifatlari hamda individual psixologik xususiyatlariga doir umumiy bilimlar shakllantiriladi. Fan dasturi tayyorlash davomida oliy ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlarida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganib chiqqan holda oliy ta'lim tizimida fanning yutuqlarini tatbiq etish yuzasidan mavzular ishlab chiqilgan. Oliy ta'lim tizimi, universitetda ta'lim sifatini ta'minlashda hozirda mavjud bo'lgan real mavzular muammolari aniqlangan va tavsiyalar berilgan.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti Amaliy psixologiya kafedrasi o'qituvchisi dotsent S.Sh.Ummatova tomonidan "Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya" faniga tuzilgan fan dasturini chop qilish va Psixologiya (barcha) bakalavriyat ta'lim yo'nalishi talabalariga mutaxassislik fani sifatida foydalanish mumkin.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Pedagogika-psixologiya kafedrasi dotsenti,
Psixologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD): **D.U.Mamadiyarova**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi dotsent S.Sh.Ummatova tomonidan tayyorlangan "Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya" faniga tuzilgan fan dasturiga

TAQRIZ

Ushbu fan "Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya" fanida fan dasturi oily ta'lim muassasasida o'quv jarayonlarini tashkil etishda talabalarga "Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya" bilimlar berish, har bir inson va butun bir jamiyat psixik salomatligini saqlab qolishga mo'ljallab tuzib chiqilgan. Fan dasturi oily ta'lim muassasalarida fanni tashkil etishda fanning vujudga kelish tarixi, dolzarbligi, maqsad va vazifalari, fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga qo'yilgan talablar, fanning mohiyati ochib berilgan. Fan dasturida fan yuzasidan mavzular ketma-ketligi, fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda murakkablik darajasi ishlab chiqilgan. Bundan tashqari talabalarga shaxsning bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy sifatlari, individual-psixologik xususiyatlari, ichki regulyatsiya, shaxs va faoliyat shuningdek, kasbiy ko'nikmalar va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammolariga alohida e'tibor qaratilgan.

Fan yuzasidan talabalarga "Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya" fanining predmeti, maqsad va vazifalari, fanning yuzaga kelish tarixi, ushbu fan taraqqiyotiga turli olimlarning qo'shgan hissasi, miya va psixika, psixikaning nerv-fiziologik asoslari, shaxs, faoliyat, kognitiv jarayonlar, jumladan, diqqat, xotira, xayol, sezgi, idrok, nutq, tafakkur jarayonlari, shaxsning hissiy irodaviy sifatlari hamda individual psixologik xususiyatlariga doir umumiy bilimlar shakllantiriladi. Fan dasturi tayyorlash davomida oliy ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlarida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganib chiqqan holda oliy ta'lim tizimida fanning yutuqlarini tatbiq etish yuzasidan mavzular ishlab chiqilgan. Oliy ta'lim tizimi, universitetda ta'lim sifatini ta'minlashda hozirda mavjud bo'lgan real mavzular muammolari aniqlangan va tavsiyalar berilgan.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti Amaliy psixologiya kafedrasi o'qituvchisi dotsent S.Sh.Ummatova tomonidan "Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya" faniga tuzilgan fan dasturini chop qilish va Psixologiya (barcha) bakalavriyat ta'lim yo'nalishi talabalariga mutaxassislik fani sifatida foydalanish mumkin.

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
"Psixologiya" kafedrasi mudiri
Psixologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent **Qodirov Obid Safarovich**